



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

KONSEPTUAL TIZIM VA UNING LINGVOMADANIY VERBALIZATSIYASI

Abdurasulova Muazzamxon

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada konsept, verbalizatsiya va lingvomadaniyat tushunchalari kognitiv lingvistika hamda lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri, milliy dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va madaniy tajribasini aks ettiruvchi murakkab belgilar tizimi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan konsept inson ongida shakllangan bilimlar majmui, obrazli tasavvurlar, emotsional baholar, qadriyatlar va madaniy xotiraning til birliklari orqali ifodalanadigan mazmuniy markazi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada konsept til birliklarida faqat lug‘aviy ma‘no sifatida emas, balki xalqning hayot tarzi, ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlari va madaniy stereotiplari bilan bog‘liq murakkab mazmuniy tuzilma sifatida tahlil qilinadi. Konseptning verbalizatsiyasi so‘z, frazeologik birlik, maqol, matal, metafora, ramziy ifoda va matn orqali yuzaga chiqishi asoslab beriladi. Bunda har bir til birligi muayyan konseptual mazmuni ifodalabgina qolmay, balki xalqning borliqni idrok etish usuli, baholash mezoni va madaniy tafakkurini ham aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: konsept, verbalizatsiya, lingvomadaniyat, somatik konsept, emotsional konsept, konseptosfera, lisoniy manzara.

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ СИСТЕМА И ЕЁ ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ВЕРБАЛИЗАЦИЯ

Абдурасулова Муаззамхон

Кокандский университет, Андижанский филиал, преподаватель

Аннотация

В данной статье понятия концепт, вербализация и лингвокультура рассматриваются с точки зрения когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. Язык интерпретируется не только как средство коммуникации, но и как сложная знаковая система, отражающая мышление человека, национальную картину мира, историческую память и культурный опыт народа. В этом аспекте концепт выступает как содержательный центр, объединяющий знания, образные представления, эмоциональные оценки, ценности и культурную память, которые находят выражение в языковых единицах. В статье обосновывается, что концепт проявляется в языке не только как словарное значение, но и как сложная смысловая структура, связанная с образом жизни народа, его социальным опытом, нравственными представлениями, национальными ценностями и культурными стереотипами. Вербализация концепта осуществляется посредством слов, фразеологических единиц, пословиц, поговорок, метафор, символических выражений и текстов. При этом каждая языковая единица не только передает определенное концептуальное содержание, но и отражает особенности восприятия действительности, оценочные ориентиры и культурное мышление народа.

Ключевые слова: концепт, вербализация, лингвокультура, соматический концепт, эмоциональный концепт, концептосфера, языковая картина мира.

CONCEPTUAL SYSTEM AND ITS LINGUOCULTURAL VERBALIZATION

Abdurasulova Muazzamxon

Kokand University, Andijan branch, Lecturer

Abstract

This article examines the concepts of concept, verbalization, and linguoculture from the perspectives of cognitive linguistics and linguoculturology. Language is interpreted not only as a means of communication, but also as a complex semiotic system that reflects human thinking, national worldview, historical memory, and cultural experience. From this point of view, a concept appears as a semantic center that combines knowledge, imagery, evaluation, values, and cultural memory expressed through linguistic units. The article substantiates that a concept is represented in language not merely as a lexical meaning, but as a complex semantic structure connected with the lifestyle, social experience, moral views, national values, and cultural stereotypes of a people. The verbalization of a concept is realized through words, phraseological units, proverbs, sayings, metaphors, symbolic expressions, and texts. Each linguistic unit

not only conveys a certain conceptual meaning, but also reflects the way a nation perceives reality, evaluates phenomena, and constructs cultural thinking.

Keywords: concept, verbalization, linguoculture, somatic concept, emotional concept, conceptsphere, linguistic worldview.

Zamonaviy tilshunoslikda til inson tafakkuri, tajribasi va madaniy xotirasini ifodalovchi tizim sifatida talqin qilinadi. Shu bois konsept, verbalizatsiya va lingvomadaniyat tushunchalarini aniq chegaralash nazariy tahlilning muhim shartidir. Agar frazeologizm, metafora yoki badiiy obraz faqat leksik ma'no darajasida izohlansa, uning ortidagi qadriyat, ijtimoiy baho va emotsional tajriba ko'rinmay qoladi. Kognitiv yondashuv esa til birliklarini inson ongida shakllangan bilim modellarining tashqi belgisi deb baholaydi. Sh. Safarov kognitiv tilshunoslikda lisoniy birlik tafakkur faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi [2, 14]. N. Mahmudov olamning lisoniy manzarasi milliy idrok va so'z tanlovi orqali yuzaga chiqishini ko'rsatadi [3, 3–12]. Demak, konseptni tadqiq etish til, ong va madaniyat munosabatini bir butun holda o'rganishni talab qiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek tilidagi ko'plab birliklar, xususan "ko'ngil", "yurak", "or", "nomus", "uyat", "andisha" kabi leksemalar oddiy nominatsiya doirasidan chiqib, milliy axloq, muomala madaniyati va emotsional me'yorlarni birlashtiradi. Bunday birliklarni faqat izohli lug'atdagi ma'nosi bilan sharhlash ularning kommunikativ vazifasini to'liq ochmaydi. Masalan, "ko'ngil olish" iborasi ruhiy holatni yumshatish, e'tibor ko'rsatish va ijtimoiy muvozanatni tiklash kabi bir nechta mazmun qatlamini o'zida jamlaydi. Shu jihatdan maqolaning maqsadi tayanch terminlarni ixcham, lekin ilmiy asoslangan tarzda izohlash hamda keyingi tadqiqotlar uchun konseptual tahlil mezonlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotda nazariy tahlil, terminologik tahlil va qiyosiy sharhlash metodlari qo'llanadi. Nazariy tahlil konsept haqidagi asosiy qarashlarni umumlashtirishga, terminologik tahlil tayanch atamalarning mazmun chegarasini belgilashga, qiyosiy sharhlash esa o'zbek, rus va ingliz tillaridagi birliklarni taqqoslashga xizmat qiladi. Popova va Sternin semantik-kognitiv yondashuvda tahlil yo'li avvalo tildan konseptga qarab borishini qayd etadi: leksik, frazeologik va matniy vositalar asosida konseptning belgilari tiklanadi [6, 15]. D. Xudoyberganova ham antroposentrik tahlilda matn inson omili, ruhiy holat va madaniy kontekst bilan bog'liq holda o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi [2, 18]. Shu sababli maqolada konseptual birliklar alohida so'z emas, balki madaniy axborot tashuvchi maydon sifatida tahlil qilinadi.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, konsept haqidagi qarashlar uch asosiy yo'nalishda rivojlangan. Birinchi yo'nalishda konsept tushuncha va ma'no bilan yaqinlashtiriladi; bu yondashuv mantiqiy-semantik tavsif uchun qulay. Ikkinchi yo'nalishda konsept xotira, freym, ssenariy va prototiplar bilan bog'langan kognitiv birlik sifatida talqin qilinadi. Uchinchi yo'nalishda esa konsept milliy madaniyat, tarixiy xotira va qadriyatlar bilan bog'liq mental-madaniy tuzilma sifatida qaraladi. Mazkur maqolada aynan uchinchi yo'nalish ustuvor bo'lib, kognitiv va lingvomadaniy talqinlar o'zaro uyg'unlashtiriladi.

Konsept kognitiv lingvistikada inson ongidagi bilim, tasavvur, obraz va baholashning ko'p qatlamli mental birligi sifatida tushuniladi. Popova va Sternin konseptni bazaviy fikrlash kodiga mansub, ichki tuzilishga ega mental birlik deb ta'riflaydi [6, 23]. Bu ta'rif konseptni so'z bilan tenglashtirib bo'lmashligini ko'rsatadi. Masalan, "yurak" leksemasi anatomik organ nomidir, ammo "yuragi keng", "yuragi tosh", "yuragi orqaga tortdi" kabi birliklarda u saxovat, shafqatsizlik yoki qo'rquvni ifodalovchi konseptual belgilarga aylanadi. Konsept odatda yadro va periferiyadan iborat bo'ladi. Yadroda eng barqaror ma'no belgisi joylashadi, periferiyada esa madaniy, emotsional va pragmatik assotsiatsiyalar to'planadi. "Ko'ngil" konseptining yadrosida ichki ruhiy holat tursa, periferiyasida mehr, ranjish, istak, rozilik va iymon kabi belgilar mujassam. A. Navoiy "ko'ngil maxzani"ni til va so'z orqali ochiladigan ichki olam sifatida tasvirlaydi [1, 521]. Bu fikr konsept va uning lisoniy ifodasi o'rtasidagi uzviy aloqani badiiy shaklda ko'rsatadi.

Konseptni aniqlashda nominativ maydon tushunchasi ham muhimdir. Nominativ maydon konseptni bevosita yoki bilvosita ifodalovchi barcha birliklar yig'indisini bildiradi: bosh nom, sinonim, antonim, frazeologizm, metafora, maqol, badiiy obraz va diskursiv formulalar shu maydonga kiradi. Masalan, "qo'rquv" konseptini "qo'rqmoq", "hadiksiramoq", "yuragi orqaga tortmoq", "rangi oqarib ketmoq", "eti uvishmoq" kabi birliklar orqali tahlil qilish mumkin. Ularning ayrimlari ruhiy holatni, ayrimlari tana reaksiyasini, boshqalari esa ijtimoiy bahoni bildiradi. Demak, konseptual tahlil so'zlar ro'yxatini tuzish emas, balki til birliklari ortidagi tajriba modelini tiklashdir.

Verbalizatsiya konseptning til vositalari orqali ifodalanishi, ya'ni ongdagi mazmunning so'z, ibora, metafora, matn yoki diskurs shaklida tashqi ko'rinishga chiqishidir. Muhim jihat shundaki, nutqda

konseptning barcha qatlami emas, balki kommunikativ vaziyat uchun zarur qismi faollashadi. Popova va Sternin nutq jarayonida konseptning kommunikativ relevanti verbalizatsiya qilinishini ta'kidlaydi [6, 15]. Masalan, "jahli chiqdi" iborasida g'azabning ijtimoiy ko'rinishi, "qoni qaynadi" iborasida esa emotsiyaning fiziologik-metaforik belgisi yuzaga chiqadi. Lakoff va Johnson metaforaning mohiyati bir hodisani boshqa hodisa orqali tushunish va tajribadan o'tkazishdan iborat ekanini ko'rsatadi [8, 5]. Shuning uchun o'zbekcha "qoni qaynadi", ruscha "кровь кипит" va inglizcha "boiling with anger" birliklari g'azabni issiqlik va harakat modeli orqali verbalizatsiya qiladi.

Verbalizatsiyaning leksik, frazeologik va matniy darajalari farqlanadi. Leksik darajada konsept "quvonch", "g'azab", "uyat" kabi alohida so'z bilan nomlanadi. Frazeologik darajada konsept tayyor obrazli birlik orqali ifodalanadi: "boshi osmonga yetdi", "yerga qarab qoldi", "ko'ngli cho'kdi". Matniy darajada esa konsept butun epizod, qahramon nutqi, portret yoki muallif izohi orqali ochiladi. Badiiy matnda ayniqsa uchinchi daraja muhim, chunki yozuvchi konseptni doimo to'g'ridan-to'g'ri nomlamaydi, balki vaziyat va obrazlar tizimi orqali ko'rsatadi. Tarjimada ham verbalizatsiya muhim: "ko'ngli qoldi" iborasi ingliz tilida so'zma-so'z emas, "to feel hurt" yoki "to be disappointed" kabi konseptual mos birliklar bilan beriladi.

Lingvomadaniy tahlil tilni xalq madaniyati, qadriyatlar va tarixiy xotirasidan ajratmay o'rganadi. V. Maslova lingvokulturologiyani til va madaniyat kesishmasida shakllangan, madaniyatning tilda mustahkamlangan ko'rinishlarini o'rganuvchi fan deb izohlaydi [5, 27–28]. Bunday yondashuvda frazeologizm, maqol, ramz va etiket formulalari oddiy nutqiy birlik emas, balki madaniy kod sifatida qaraladi. Maslova obrazli birliklarda xalq mentaliteti va qadriyatlar saqlanishini ham ta'kidlaydi [5, 39–44]. Masalan, "mehmon otangdan ulug'" maqolida mehmon qadri ijtimoiy burch va obro' mezonini darajasida baholanadi. "Non topmoq", "noni butun", "non urmoq" birliklarida esa "non" oziq-ovqatdan tashqari rizq, halollik va oila barqarorligi bilan bog'liq konseptual maydonni hosil qiladi. Wierzbicka madaniyatga xos kalit so'zlar jamiyatning ichki qadriyatlarini tushunish uchun konseptual vosita ekanini qayd etadi [10, 16]. Shu nuqtayi nazardan "ko'ngil", "or", "nomus", "andisha" kabi o'zbekcha birliklar milliy lisoniy manzaraning markaziy belgilaridir.

Lingvomadaniy tahlilda uch qatlamni ajratish maqsadga muvofiq: denotativ qatlam birlikning bevosita mazmunini, konseptual qatlam uning faollashtiradigan bilim modelini, aksiologik qatlam esa ijobiy yoki salbiy bahosini bildiradi. "Yuragi keng" iborasida denotativ ma'no anatomik organ bilan emas, saxovat va bag'rikenglik bilan bog'lanadi; aksiologik jihatdan u ijobiy bahoga ega. "Yuragi tosh" da esa qattqlik metaforasi shafqatsizlikka ko'chib, salbiy bahoni yuzaga chiqaradi. Bunday qatlamli tahlil tarjima, lingvodidaktika va badiiy matn sharhida ayniqsa zarur, chunki u birlikning nafaqat "nima anglatishi", balki "nima uchun qadrlanishi" ni ham ochadi.

Somatik konsept tana a'zolari nomlari asosida shakllanadigan bilim modelidir. Inson dunyoni avvalo tanasi orqali idrok etadi: ko'radi, eshitadi, ushlaydi, og'riqni sezadi, qo'rquvda tortiladi yoki quvonchda yengillashadi. Shu sababli "bosh", "ko'z", "qo'l", "til", "yurak", "ko'ngil" kabi birliklar ko'plab tillarda faol konseptual markazga aylanadi. Biroq umumiylik bilan birga milliy xususiylik ham mavjud. Inglizcha "heart of stone", ruscha "каменное сердце" va o'zbekcha "yuragi tosh" bir xil metaforik modelga ega bo'lsa-da, "ko'ngil" ning ma'no maydoni inglizcha "heart" yoki ruscha "сердце" bilan to'liq qoplanmaydi. "Ko'ngil so'ramoq", "ko'ngil bermoq", "ko'ngli tog'dek ko'tarildi" birliklarida ko'ngil emotsiya bilan birga munosabat, e'tibor va odob markazini ham bildiradi. Demak, somatik birliklar nafaqat anatomik nom, balki madaniy tajribani tartibga soluvchi semiotik belgidir.

Somatik birliklarda tana a'zosi ko'pincha ijtimoiy vazifaga ko'chadi. "Bosh" aql, rahbarlik va mas'uliyatni bildiradi: "bosh bo'lmoq", "boshi qotmoq", "bosh egmoq". "Qo'l" faoliyat, egalik, yordam va imkoniyat bilan bog'lanadi: "qo'lidan kelmoq", "qo'l urmoq", "qo'li uzun". "Til" esa nutq, sir, odob va ijtimoiy mavqeni ifodalaydi: "til topishmoq", "tilini tiymoq", "tili uzun". Bu misollar tana nomlarining konkret predmetlikdan chiqib, ijtimoiy tajribani tartibga soluvchi madaniy belgiga aylanishini ko'rsatadi.

Emotsional konsept his-tuyg'ularni nomlash, baholash va madaniy me'yorlar asosida tushuntirish tizimidir. Wierzbicka emotsional tushunchalarni universal semantik birliklar yordamida izohlash mumkinligini ko'rsatadi [10, 539–541]. Koveces esa emotsiyalar metafora, metonimiya va madaniy model orqali shakllanishini ta'kidlaydi [7, 20–22]. O'zbek tilidagi "sevinchi ichiga sig'madi" iborasi quvonchni idish modeli orqali, "ko'ngli yorishdi" yorug'lik modeli orqali, "ko'ngli cho'kdi" esa pastga harakat modeli orqali ifodalaydi. Bu birliklar emotsiyaning biologik asosi borligini, ammo uning nutqiy shakli madaniyatga bog'liqligini ko'rsatadi. "Uyat", "hayo", "andisha" kabi birliklar shaxsiy kechinmadan tashqari ijtimoiy nazorat, tarbiya va muomala me'yorini bildiradi. Emotsional konseptlarni o'rganishda

baho mezoni alohida ahamiyatga ega. Har bir jamiyat qaysi hissiyotni ochiq aytish, qaysi birini yashirish yoki bilvosita ifodalash lozimligini nutqiy odat orqali belgilaydi. O'zbek nutqida ranjish, uyalish yoki minnatdorlik ko'pincha bevosita emas, "ko'nglim og'ridi", "uyat bo'ladi", "ko'nglimdan joy oldi" kabi yumshoq obrazli birliklar bilan ifodalanadi. Bu holat emotsional konseptlarning faqat psixologik emas, balki ijtimoiy-kommunikativ xususiyatga ham ega ekanini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, konsept, verbalizatsiya va lingvomadaniyat yagona tadqiqot zanjirining uch bo'g'inidir: konsept mental-madaniy mazmuni, verbalizatsiya shu mazmunning lisoniy ifodasini, lingvomadaniyat esa ifodaning qadriy va tarixiy muhitini belgilaydi. Somatik va emotsional konseptlar bu aloqani ayniqsa yaqqol namoyon qiladi, chunki ular tana tajribasi, hissiy holat va madaniy bahoni birlashtiradi. Shunday qilib, frazeologizm, metafora, maqol yoki badiiy obrazni tahlil qilishda faqat lug'aviy ma'no bilan cheklanish yetarli emas. Ularni konseptual maydon sifatida o'rganish milliy dunyoqarash, emotsional me'yor va madaniy xotirani ochish imkonini beradi. Yakuniy shakllangan nazariy xulosa shundan iboratki, konseptual tahlil uchun uch bosqichli model qo'llanishi mumkin: birinchidan, konseptning nominativ maydoni aniqlanadi; ikkinchidan, birliklarning metaforik, frazeologik va matniy ifodasi tavsiflanadi; uchinchidan, ular orqali faollashadigan madaniy baho va emotsional me'yor izohlanadi. Ushbu model somatik hamda emotsional konseptlarni qiyosiy o'rganishda, shuningdek badiiy matn va tarjima tahlilida samarali nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild: Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1998. – 544 b.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.
3. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. – 2015. – № 3. – B. 3–12.
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 131 b.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: учеб. пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
6. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ; Восток-Запад, 2007. – 314 с.
7. Kövecses Z. Metaphor and emotion: language, culture, and body in human feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 242 p.
8. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago; London: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
9. Wierzbicka A. Defining emotion concepts // Cognitive Science. – 1992. – Vol. 16. – P. 539–581.
10. Wierzbicka A. Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1997. – 328 p.
11. Тураев А. Концептуальные модели патологической терминологии: сравнительный анализ узбекского и русского медицинского дискурса // Общество и инновации. – 2026. – Т. 7, № 1. – С. 108–115. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol7-iss1-pp108-115.